

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 212 (1273), 2024-yil 19-oktabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN
ONA VA BOLA SALOMATLIGI ILMIY-AMALIY
TIBBIYOT MARKAZI JAMOASIGA

Qadri do'stlar!

Avvalo, siz, azizlarni mamlakatimizdagi nufuzli tibbiyot muassasalaridan biri — Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilganining 50 yilligi bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etib, barchangizga o'zining chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Ushbu qutlug' ayyomda Yangi O'zbekistonda ona va bola salomatligini himoya qilish orqali milliy genofondimizni asrash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalashdek g'oyat sharafli ishga munosib hissa qo'shib kelayotgan Markazning ko'pmillatli ahil jamoasi — jonkuyar shifokorlar, olim va mutaxassislar, zahmatkash hamshiralarga fidokorona mehnati uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

So'nggi yillarda inson qadrini ulug'lashga qaratilgan dasturlarimiz doirasida ona va bola salomatligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratayotganimiz albatta bejiz emas. Chunki bu yurtimizdagi har bir inson va oila, butun jamiyatning baxti va kelajagi bilan bog'liq g'oyat muhim masaladir.

Shu maqsadda tibbiyotimizning ushbu yetakchi tizimi ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy yondashuvlar asosida isloh qilinib, uning moddiy-texnik, ilmiy-metodik bazasi, kadrlar salohiyati, tarkibiy tuzilmasi tubdan takomillashtirildi.

Ayniqsa, o'tgan yili tarixiy an'analariga ega bo'lgan uchta muassasa negizida Respublika ixtisoslashtirilgan

ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazini tashkil etganimiz bu yo'ldagi katta qadam bo'ldi. Natijada mamlakatimizda 9 million 200 ming nafardan ziyod tug'ish yoshidagi ayollarga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish hamda homila salomatligini nazorat qilib borishning yaxlit va vertikal boshqarish tizimi yaratildi, takomillashtirilgan tibbiy profilaktika hamda patronaj xizmatlari yo'lga qo'yildi.

Bu haqda so'z yuritganda, ilk bor yurtimizdagi har bir oila patronaj hamshiralari va "Ayollar maslahatxonasi" bo'lmalari orqali Markaz bilan bog'langani, birlamchi bo'g'indagi tibbiy brigadalar tarkibiga 8 ming 500 nafar doya shtati ajratilganini ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda Markaz o'z tarkibida 14 ta hududiy filial, 46 ta tumanlararo perinatal markaz, 170 dan ortiq tug'uruq kompleksi va 209 ta Ayollar maslahatxonasini birlashtirganining ulkan salohiyatidan dalolat beradi. Bu esa ana shu muassasalar ishini samarali muvofiqlashtirib, birlamchi tizimda patronaj xizmatini sifatli yo'lga qo'yish, homilador ayollarni skriningdan o'tkazib, ularning salomatligini muntazam tahlil qilib borish, bir so'z bilan aytganda, xavfsiz onaligini ta'minlash imkonini bermoqda.

Markaz dunyodagi yetakchi tibbiyot markazlari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yib, tibbiy diagnostika va davolashning ilg'or usullarini klinik amaliyotga keng joriy etayotgani ham diqqatga sazovordir. Xususan, ginekologiya yo'nalisida yiliga 1300 dan ortiq jarrohlik operatsiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani, 36 turdagi yuqori texnologik

operatsiyalar yo'lga qo'yilgani qancha-qancha yurtidoshlarimizni ortiqcha vaqt va mablag' sarflab, chet elga borib davolanish tashvishidan xalos etmoqda.

Markaz yurtimizdagi davlat davolash muassasalari orasida birinchi bo'lib xalqaro akkreditatsiyadan o'tgani uning nufuzi nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham ortib borayotganini ko'rsatadi.

Inson, jumladan, ona va bola salomatligiga nisbatan xavf-xatarlar tobora ko'payib borayotgan hozirgi murakkab zamonda bu borada oldimizda yanada dolzarb vazifalar paydo bo'lmoqda. Bu esa barchamizdan har qachongidan ham ko'proq mehnat, izlanish va safarbarlikni talab etmoqda.

Ushbu sohaning fidoyi vakillari bo'lgan siz, azizlar buni chuqur anglagan holda, o'z bilim va tajribangiz, malaka va mahoratingiz bilan el-yurtimizga yanada faol xizmat qilasalzar, deb ishonaman.

O'z navbatida, soha rivojiga alohida ahamiyat berish, sizlarning sharafli mehnatingizni munosib rag'batlantirish bundan buyon ham davlatimizning e'tibor markazida bo'ladi.

Sizlarni bugungi quvonchli sana bilan yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, mas'uliyatli faoliyatingizda yutuq va omadlar, oilalaringizga tinchlik va baxt-u saodat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS
QONUNCHILIK PALATASI
VA MAHALLIY
KENGASHLAR DEPUTATLARI
SAYLOVI KUNI

SAYLOV
2024
27-OKTABR
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Mazkur maqola O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

21-oktabr — O'zbek tili bayrami kuni

MILLATNING
MA'NAVIY TIMSOLI

Tilning barhayotligi, shubhasiz, uning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan insonlarga bog'liq. Hozir katta bir oilani birlashtirib turgan o'zbek tilida so'zlashuvchilarning 60 millionga yaqin ekani ham uning xalqaro maydondagi darajasini belgilaydi.

Til har bir xalqning o'zlik bulog'idir. Unda xalq boshidan kechirgan voqea va hodisalar jamlangan. Hozirgi kunda ona Yer bag'rida 8 milliard odam, turli millat vakillari yashaydi. Yaqin-yaqingacha ular 7-8 mingta tilda

gaplashgan. Bugun mavjud tillar soni 6 mingga qadar tushib ketgan. Achinarlisi, bu tillarning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida.

Davomi 5-betda

YANGI O'ZBEKISTONDA ONA VA BOLA SALOMATLIGINI
HIMOYA QILISH G'OYAT MUHIM MASALADIR

Mamlakatimizdagi nufuzli tibbiyot muassasalaridan biri — Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilganiga 50 yil bo'ldi.

Bugungi kunda Markaz o'z tarkibida 14 ta hududiy filial, 46 ta tumanlararo perinatal markaz, 170 dan ortiq tug'uruq kompleksi va 209 ta Ayollar maslahatxonasini birlashtirgan. Markaz dunyodagi yetakchi tibbiyot markazlari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yib, tibbiy diagnostika va davolashning ilg'or usullarini klinik amaliyotga keng joriy etmoqda. Xususan, ginekologiya yo'nalisida yiliga 1300 dan ortiq jarrohlik operatsiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirilib, 36 turdagi yuqori texnologik operatsiyalar yo'lga qo'yilgan.

Davomi 2-betda

INVESTITSIYA VA
INNOVATSIYALAR

farovonlikka
erishish kafolati

Poytaxtimizda "Yangi O'zbekiston: taraqqiyot, innovatsiya va ma'rifat" mavzusidagi xalqaro hamkorlik tashabbuslari haftaligi davom etmoqda. Tadbirning ikkinchi kunida aholi farovonligini oshirishda barqaror iqtisodiy o'sish, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qilingan ishlar va istiqboldagi rejalar muhokama etildi.



Milliy va xalqaro ekspertlar qayd etganidek, yurtimizda inson kapitalini rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish, yoshlar salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha ko'rilayotgan keng qamrovli chora-tadbirlar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'layotir. Masalan, kambag'allik darajasi 2019-yildagi 23 foizdan 2023-yilda 11 foizgacha kamaydi. Jahon banki o'z hisobotida bu borada O'zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida kambag'allikni qisqartirishda eng yaxshi natija ko'rsatayotganini qayd etdi. Sohadagi ishlar davom ettirilib, 2025-yil oxiriga qadar kambag'allik darajasini 6 foizgacha qisqartirish aniq maqsad qilib qo'yilgan.

Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltirilayotgan investitsiya ham barqaror rivojlanishga erishishda muhim omil bo'lmoqda. Maktabgacha ta'lim qamrovi keskin oshdi, oliy ta'lim qamrovi ham o'sib boryapti. Fuqarolarni munosib ish bilan ta'minlash va aholining yashash sharoitini yaxshilash borasida ham o'ziga xos yutuqlar qo'lga kiritilyapti. Bundan tashqari, O'zbekistonda soliq tizimini soddalashtirish, raqamlashtirishni jadallashtirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali biznes muhitini yaxshilash bo'yicha amaliy ishlar ko'lami kengaymoqda.

Davomi 2-betda

PUL TOPISH UCHUN XORIJGA BORISH SHART EMAS

TARIX — ENG YAXSHI MUALLIM

O'tgan qishda ijtimoiy tarmoqlarda sovuq o'lkalarda qurilishda ishlash yurgan migrantlarga qarshi mahalliy huquq-tartibot idoralari tomonidan o'tkazilgan reytda tadbirning videosi tarqalgandi. O'sha lavha jamiyatimizni larzaga solgandi. Qor qoplagan zax yerga tizzalab, qo'llarini boshiga qo'yishga majbur qilingan migrantlar yuz-ko'zlaridagi dard, g'am-anduh va chorasizlikni oddiy so'zlar bilan ta'riflash, ifodalash mushkul. O'sha lavhalarni hali ham internetdan topsa bo'ladi. Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, ular bizning fuqarolarimiz emas ekan...

Biroq bundan uzoq bo'lmagan yillar xorijda 3,5 milliondan 5 milliongacha o'zbek muhojiri borligi aytilardi. Qishloqlarda ish yo'qligidan maktabni bitirgan kishi borki, chetga otlanardi.



Shu bois, o'sha vaqtlarda qancha odam chetda ishlayotgani haqida aniq ma'lumot bo'lmay, bu boradagi rasmiy statistikaga esa ishonch yo'q edi.

Eshitganim bor, qaysidir chekka viloyatdagi qishloqlarning biridagi ta'ziyada tobutni ko'tarishga erkak topilmagan ekan... Ota ketidan farzand, uning ortidan nevara yo'l olayotgandi.

Ha, vaziyat shunday og'riqli va mushkul, kuni o'tmaganidan, oilasiga bir burda non topib berolmagan oila egalarning bundan boshqa chorasi yo'q edi.

Biroq bu kabi o'ta og'ir ijtimoiy muammolarga ko'z yumilardi. Tan olinmasdi. Turli statistik raqamlardan chiroyli kartina yasaldirdi. Yiliga bir millionta ish o'rni yaratilgani haqida balandparvoz maqolalar yozilardi, po'rim kiyingan amaldorlarning bu haqdagi intervyulari televizor ekranlarini to'ldirdirdi.

Davomi 4-betda



